XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 7-fevral VII-5-20-10-0-K/25 Toshkent viloyati

Maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi “Chiqindilarni boshqarish tizimini takomillashtirish va ularning ekologik vaziyatga salbiy ta’sirini kamaytirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 5-son farmoni, 2023-yil 15-avgustdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli qarori, 2020-yil 29-sentabrdagi “Maishiy va qurilish chiqindilari bilan bog‘liq ishlarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 4845-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi normativ- huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 95-sonli qarori talablariga asosan Toshkent viloyati hududlarida maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lov tariflarini tartibga solish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 4-yanvardagi 5-sonli farmoni, 2023-yil 15-avgustdagi 278-sonli qarori, 2020-yil 29-sentabrdagi 4845-sonli qarori hamda Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 6-fevraldagi 95-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Sanitar tozalash korxonalari - “Ibroximjon ishonch” MChJ, “Shabnam-obod-servis” MChJ, “Ahmadjon omad baraka” XK, “Dilshod Murodbaraka” XK, “Metal-mexanik- master” MChJ, “Orzu ishonch fayz” MChJ, “Dilxumor servis” MChJ, “Obod hudud servis” MChJ, “Iskandar servis luks” MChJ, “Maks qur lider maxsus” MChJ hamda “Nurafshon-obod-hudud”

MCHJlar tomonidan hududlarda maishiy chiqindi xizmatlari uchun yangi to‘lov tariflari **ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, yuqoridagi korxonalar uchun Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazining tegishli xulosalari olinganligi inobatga olinsin.

3. Hududlarda maishiy chiqindi xizmatlari uchun to‘lovtariflari ilovada keltirilgan tariflarga muvofiq **2025-yil 1-martdan** boshlab qo‘llanilishi belgilansin.

4. Viloyat Iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (M.Aripov), viloyat G‘aznachilik boshqarmasi (F.Nurillayev) byudjetdan moliyalashtiriladigan tashkilotlarning xarajatlar smetasida qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatlari bo‘yicha belgilangan normativlar asosida zarur mablag‘lar rejalashtirilishi ko‘rsatib o‘tilsin.

5. Viloyat axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i, “Toshkent haqiqati”, “Tashkentskaya pravda” gazetalariga qattiq va suyuq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqish xizmatlarining yangi tariflari **2025-yilning 1-martdan** boshlab qo‘llanilishi yuzasidan ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borilishi tavsiya etilsin.

6.“Ibroximjon ishonch” MChJ, “Shabnam-obod-servis” MChJ, “Ahmadjon omad baraka” XK, “Dilshod Murodbaraka” XK, “Metal-mexanik-master” MChJ, “Orzu ishonch fayz” MChJ, “Dilxumor servis” MChJ, “Obod hudud servis” MChJ, PBK Iskandar servis luks, “Maks qur lider maxsus” MChJ hamda “Nurafshon-obod-hudud” MChJ hududlarda maishiy chiqindi xizmatlari uchun yangi to‘lov tariflari 2025-yil 1-mart kunidan boshlab qo‘llanishi yuzasidan har bir mahallada targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borsin.

7. “Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisidiyotni rivojlantirish agentligining Toshkent viloyati boshqarmasi boshlig‘i (I.Xamrayev) har chorak yakuni bilan hududlarda maishiy chiqindilarni to‘lash va olib ketish bo‘yicha bajarilayotgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlari viloyat Kengashiga hisobot kiritib borsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashining Agrar, suv xo‘jaligi va ekologiya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi A.Xudayberganov, viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari O.Tursunov hamda viloyat hokimining o‘rinbosari Sh.Mahmudov zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



FAYZIYEVA
SAYYORA
MAVLYANOVNA

Xalq deputatlari Toshkent viloyati
Kengashining
2025-yil 7-fevraldagi
VII-5-20-10-0-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Maishiy chiqindi xizmatlari uchun yangi to‘lov TARIFLAR*

T.r.	Tashkilot nomi	Xizmat turi	Xizmat ko‘rsatuv-chi obyekt	O‘lchov birligi	Tasdiqlan-gan tarif *(so‘m QQS siz)*	Tasdiqlan-gan tarif *(so‘m QQS bilan)*	Xizmat ko‘rsatiladi-gan shahar va tuman
1	“IBROXIMJON ISHONCH” MChJ	Maishiy chiqindi xizmatlari	Jismoniy shaxslar uchun	1 kishi (bir oylik)	7 000,0	7 840,0	Bekobod shahar
2	“SHABNAM-OBOD-SERVIS” MChJ						Bekobod shahar
3	“Ahmadjon Omad Baraka” XK						Bekobod shahar
4	“DILSHOD MUROD BARAKA” XK						Bekobod shahar
5	“METAL-MEXANIK-MASTER” MChJ						Bekobod shahar
6	“ORZU ISHONCH FAYZ” MChJ		Yuridik shaxslar uchun	1 m3	74 000,0	82 880,0	Bekobod shahar
7	“DILXUMOR SERVIS” MChJga						Bekobod shahar
8	“OBOD HUDUD SERVIS” MChJ						Zangiota tumani
9	ISKANDAR SERVIS LUKS						Zangiota tumani
10	“MAKS QUR LIDER MAXSUS” MChJ						Zangiota tumani
11	“NURAFSHON-OBOD-HUDUD” MChJ						Nurafshon shahar

** korxonalar faoliyati tugatilganda, uning vazifasini bajaruvchi korxonalarda belgilangantariflarkeyingitarifo‘zgargungaqadar saqlab qolinadi.*